

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar
vazirining
birinchi o‘rinbosari**


O. Umarov
“22” dekabr 2025-y.

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Milliy statistika qo‘mitasi
raisining o‘rinbosari**



Z. Ziyaev
“16” dekabr 2025-y.

**O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portalida
foydalanuvchilar tomonidan so‘ralgan yangi turdagi ochiq
ma’lumotlar to‘plamlarini e’lon qilish**

T A R T I B I

“KELISHILDI”

**Raqamli texnologiyalar vazirligi
huzuridagi “Raqamli hukumat
loyihalarini boshqarish markazi” DM
direktorining birinchi o‘rinbosari**


D. Shoraxmedov
“22” dekabr 2025-y.

Toshkent – 2025 y.

**O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida foydalanuvchilar tomonidan
so'ralgan yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamlarini e'lon qilish**

TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib foydalanuvchilar tomonidan Ochiq ma'lumotlar portalini (keyingi o'rinlarda – Portal) orqali so'ralgan yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamlari bo'yicha so'rovlarni (keyingi o'rinlarda – yangi ma'lumotlar to'plami) qabul qilish, ko'rib chiqish, ovoz to'plash va Portalda e'lon qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanadi:

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalini (keyingi o'rinlarda — **Portal**) – Internet jahon axborot tarmog'idagi O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini doirasida faoliyat ko'rsatuvchi hamda davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan, ochiq ma'lumotlarni e'lon qilishda va ulardan foydalanishda Portal operatori, ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar va foydalanuvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi data.gov.uz elektron manzilida joylashgan axborot resursi;

foydalanuvchi – Portalda joylashtirilgan ochiq ma'lumotlardan foydalana oluvchi hamda yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamini e'lon qilish bo'yicha so'rov yuboruvchi jismoniy va yuridik shaxs;

Portal operatori – davlat organlari va tashkilotlariga ochiq ma'lumotlar sohasida metodologik yordam ko'rsatuvchi, shuningdek ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yangilash va foydalanuvchi so'rovlari, ovoz berish jarayonlarini tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan hamda Portalda foydalanish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiruvchi yuridik shaxs – Milliy statistik qo'mitasi;

ochiq ma'lumotlar to'plami – ochiq ma'lumotlarning bir turdagi elementlari va ularni tavsiflovchi atributlar majmui;

yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plami – Reyestrda (ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxati) mavjud bo'lmagan, ammo foydalanuvchilar talabi va xalqaro tajribaga asosan joylashtirilishi maqsadga muvofiq deb topilgan ochiq ma'lumotlar to'plami;

ochiq ma'lumotlar to'plami pasporti – ochiq ma'lumotlar to'plamini bir xil identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ushbu to'plam to'g'risidagi ma'lumotlar majmui;

so'rov – foydalanuvchi tomonidan Portal orqali yuborilgan, yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plami e'lon qilinishi maqsadidagi amaliyot;

status – yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plami e'lon qilinishi maqsadida foydalanuvchi tomonidan Portal orqali yuborilgan so'rovning bosqichma-bosqich yangilanib boradigan holati;

ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi – Portalda ochiq ma'lumotlar to'plamlarini, shuningdek, yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamlarini joylashtiradigan davlat organi va tashkiloti. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi sifatida xo'jalik yurituvchi subyekt va nodavlat notijorat tashkilot ham ishtirok etishi mumkin;

ovoz berish (yoki ovoz to'plash) – foydalanuvchilar tomonidan yangi turdagi ma'lumot bo'yicha so'rovga berilgan ustuvorlik bahosini aniqlashga qaratilgan onlayn ovoz berish jarayoni.

3. Tartibning maqsadi – ochiq ma'lumotlar sohasida talabga asoslangan yondashuvni ta'minlash, foydalanuvchi so'rovlarni tizimli shaklda ko'rib chiqish va ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar oldida aniq majburiyatlar o'rnatish orqali Portalda ma'lumotlar taklifini kengaytirishdan iborat.

4. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalini orqali yangi turdagi ochiq ma'lumotlar bo'yicha so'rovlarni ko'rib chiqish va e'lon qilish Tartibga ilovadagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Foydalanuvchilarning so'rovi va takliflarini qabul qilish hamda javob berish tartibi

5. Portal orqali yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamiga so'rov quyidagi elektron shakldagi forma orqali yuboriladi:

So'ralayotgan yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamining nomi (majburiy);

Soʻralayotgan yangi turdagi ochiq maʼlumotlar toʻplamining sohasi (majburiy);
Soʻralayotgan yangi turdagi ochiq maʼlumotlar toʻplamining batafsil tavsifi (majburiy);
Soʻralayotgan yangi turdagi ochiq maʼlumotlar toʻplamini yangilash taklif etilayotgan davriyligi (majburiy);

Soʻralayotgan yangi turdagi ochiq maʼlumotlarni yetkazib beruvchilar (ixtiyoriy);

Soʻralayotgan yangi turdagi ochiq maʼlumotlar toʻplamining qoʻllanish maqsadi toʻgʻrisida qisqacha izoh (ixtiyoriy);

Foydalanuvchi F.I.Sh. yoki tashkilot nomi (majburiy);

Elektron pochta manzili (majburiy).

6. Har bir soʻrovga maxsus identifikatsiya raqami (ID-raqam) beriladi.

7. Har bir soʻrov avtomatik yangilanadigan quyidagi statuslardan biriga ega boʻladi:

“Yangi” — soʻrov qabul qilindi va Portal operatori tomonidan oʻrganilmoqda (faqat operator uchun);

“Ovoz berish jarayonida” – soʻrov moderatsiyadan muvaffaqiyatli oʻtdi va 15 kalendar kuni bilan ovozga qoʻyildi;

“Yetkazib beruvchi koʻrib chiqmoqda” – soʻrov yetarli ovoz toʻpladi, 45 kalendar kunida ochiq maʼlumotlarni yetkazib beruvchi tomonidan koʻrib chiqiladi;

“Yetarli ovoz toʻplanmadi” – belgilangan 15 kalendar kunida yetarlicha – 100 ta ovoz toʻplay olmagan soʻrov statusi;

“Rad etilgan” – ochiq maʼlumotlarni yetkazib beruvchi tomonidan soʻrov asoslantirilgan sababga koʻra rad etilgan;

“Eʼlon qilingan” – soʻrov asosida yangi turdagi ochiq maʼlumotlar toʻplami Portalda joylashtiriladi va unga havola beriladi;

“Bajarilmagan” – ochiq maʼlumotlarni yetkazib beruvchi tomondan javobsiz qoldirilgan soʻrov.

8. Forma toʻldirilgach, soʻrov Portal operatorining admin panelida “Soʻrovlar” boʻlimida “Yangi” holati bilan paydo boʻladi. Bir vaqtda foydalanuvchiga elektron pochta orqali “soʻrov koʻrib chiqish uchun qabul qilingan”ligi haqida avtomatik elektron xabar yuboriladi.

9. Portal operatori tomonidan soʻrov 15 kalendar kunida quyidagi mezonlar asosida moderatsiyadan oʻtkaziladi:

forma toʻliq va aniq toʻldirilganligi;

soʻralayotgan yangi turdagi ochiq maʼlumotlar davlat organining vakolat doirasida ekanligi;

soʻrovda davlat ahamiyatiga ega boʻlgan sir hamda qonunchilikka muvofiq maxsus toifaga kiritiladigan boshqa turdagi maʼlumotlarning mavjudmasligi;

soʻrov qonunchilik bilan taqiqlangan maʼlumotlar manbaalariga tegishlimasligi;

soʻrov qonunchilik va shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish talablari bilan mosligi.

10. Moderatsiyadan muvaffaqiyatli oʻtgan soʻrov Portal moderatori tomonidan ovoz berish bosqichiga yoʻnaltiriladi. Soʻrov portalning “Takliflar” qismida ovozga qoʻyiladi va “ovoz berish jarayonida” statusiga ega boʻladi.

11. Soʻrov portalda 15 kalendar kunida 100 ta ovoz yigʻishi talab etiladi. Natijalarga koʻra quyidagi choralar koʻriladi:

a) soʻrov belgilangan muddatda yetarlicha ovoz toʻplasa, “Yetkazib beruvchi koʻrib chiqmoqda” statusiga oʻtadi. Bunda ochiq maʼlumotlarni yetkazib beruvchi subyektning nomi yoziladi;

b) soʻrov belgilangan muddatda yetarlicha ovoz toʻplamasa, “yetarli ovoz toʻplanmadi” statusiga oʻtadi. Bu soʻrov keyingi bosqichga oʻtmagani va koʻrib chiqish yakunlanganligini anglatadi.

12. Yetarlicha ovoz toʻplagan soʻrov ochiq maʼlumotlarni yetkazib beruvchi tomonidan koʻrib chiqilishi uchun portal orqali avtomatik yuboriladi.

13. Ochiq maʼlumotlarni yetkazib beruvchi 45 kun muddatda soʻrovni koʻrib chiqib, quyidagi choralarni koʻradi:

a) yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamini e'lon qilish maqsadida so'rov bo'yicha ochiq ma'lumotlar to'plami pasportini tahrirlaydi va yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamini to'ldiradi. Bunda avtomatik ravishda so'rov statusi "E'lon qilingan"ga o'zgarib, to'plamga havola birlashtiriladi;

b) so'rovni rad etish maqsadida portalning belgilangan qismiga asoslantirilgan salbiy javob matnini kiritadi. Bunda avtomatik ravishda so'rov statusi "Rad etilgan"ga o'zgarib, so'rov bo'yicha ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchining asoslantirilgan javob matni birlashtiriladi.

14. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi belgilangan muddatda so'rov bo'yicha 13-bandda qayd etilgan choralardan birini ko'rmasa, so'rov avtomatik ravishda "bajarilmagan" deb baholanadi.

15. Har bir so'rov turli bosqichlarda belgilangan muddatlar – kalendar kunlari bo'yicha ortga sanalgan avtomatik hisob ko'rsatkichlariga ega bo'ladi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

16. O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida foydalanuvchilar tomonidan so'ralgan yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamlarini e'lon qilish Tartibi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

17. Mazkur Tartib Portal faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ravishda takomillashtirilib boriladi.

18. Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning mazkur Tartibga amal qilishlari Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida raqamli transformatsiya holatini reyting baholashda inobatga olinadi.

19. Mazkur Tartib Portalda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Portalda so'rov bo'yicha joylashtirilgan axborotlarning o'z vaqtida e'lon qilinishi, ularning ishonchliligi va to'liqligi uchun ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanadilar.

21. Portal operatori va Portalni texnik qo'llab-quvvatlovchi foydalanuvchidan kelgan so'rov, shu jumladan, Portalda joylashtirilgan yangi turdagi ochiq ma'lumotlar to'plamidan foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar uchun javobgar emas.

22. Ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

**O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali orqali
yangi turdagi ochiq ma'lumotlar bo'yicha so'rovlarni ko'rib chiqish va e'lon qilish
SXEMASI**

Bosqichlar	Tadbirlar	Mas'ullar	Muddatlar	Portalda aks etishi/ so'rov statusi
1-bosqich	Yangi turdagi ochiq ma'lumot so'rovini moderatsiyadan o'tkazish	Milliy statistika qo'mitasi	15 kalendar kuni	Portal operatorining admin panelida "So'rovlar" bo'limida/"Yangi"
1.1-bosqich	Moderatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan so'rovni portalda ovoz berish bosqichiga yo'naltirish			So'rov portalning "Takliflar" qismida ovozga qo'yiladi /"Ovoz berish jarayonida"
2-bosqich	So'rovning portalda belgilangan muddatda 100 ta ovoz yig'ishi: a) belgilangan muddatda yetarlicha ovoz to'plansa, "yetkazib beruvchi ko'rib chiqmoqda" statusiga o'tadi; b) belgilangan muddatda yetarlicha ovoz to'planmasa, "yetarli ovoz to'planmadi" statusiga o'tadi	avtomatik	15 kalendar kuni	So'rov portalning "Takliflar" qismida turadi/ "Yetkazib beruvchi ko'rib chiqmoqda" yoki "Yetarli ovoz to'planmadi"
3-bosqich	Yetarli ovoz to'plagan so'rov portal orqali ko'rib chiqiladi	Ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchi	45 kalendar kuni	So'rov portalning "Takliflar" qismida turadi/"E'lon qilingan" (<i>to'plamga havola</i>)
3.1-bosqich	So'rov bo'yicha ochiq ma'lumotlar to'plamining pasportni tahrirlanadi va ma'lumot to'plami to'ldiriladi			So'rov portalning "Takliflar" qismida turadi/"Rad etilgan" (<i>asoslantirilgan javob matn ko'rinishida</i>)
3.2-bosqich	So'rov bo'yicha asoslantirilgan rad etish javobi portal orqali kiritiladi			
3.3-bosqich	Belgilangan muddatda javob kiritilmasa, so'rov avtomatik ravishda "bajarilmagan" deb baholanadi		avtomatik	So'rov portalning "Takliflar" qismida turadi/"Bajarilmagan" (<i>qizil rangda</i>)